



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PEDAGOGIK QARASHLARINING BOSHLANG‘ICH TA‘LIM RIVOJIDAGI O‘RNI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

SamDPI o‘qituvchisi

Xursandova Rayxona Zokirbek qizi

SamDPI 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning boshlang‘ich ta‘limni isloh qilish borasidagi pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Muallifning darslik yaratish faoliyati, boshlang‘ich sinflarda dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning kognitiv dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, Behbudiyning ko‘p tilli ta‘lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot tarixiy-taqqoslash va matn tahlili metodlari asosida olib borildi. Tadqiqot natijalari Behbudiy tomonidan ilgari surilgan boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi bugungi fanlararo integratsiya va ko‘p tilli ta‘lim modellarining nazariy ildizlarini tashkil etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, boshlang‘ich ta‘lim, jadidchilik, usuli savtiya, pedagogik integratsiya, darslik metodikasi, ko‘p tilli ta‘lim.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-pedagogik muhitida tub burilish yasagan Mahmudxo‘ja Behbudiy ta‘limni millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, boshlang‘ich ta‘limni jamiyatning strategik poydevori deb talqin qildi. Uning fikricha, insonning dunyoqarashi, tafakkuri va milliy o‘zligi aynan boshlang‘ich maktab davrida shakllanadi. Behbudiy o‘z publitsistik chiqishlarida dunyoviy fanlarni egallashni jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivoji bilan chambarchas bog‘lab, an‘anaviy maktablardagi sxolastik ta‘lim tizimini tanqid qildi. U ta‘limni nafaqat ma‘naviy kamolot, balki moddiy va iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi sifatida ko‘rdi [1]. Muallif fikricha, Behbudiy tomonidan



boshlang'ich ta'limga berilgan ushbu strategik yondashuv zamonaviy ta'lim siyosatida ham yetarlicha chuqur o'zlashtirilmagan masalalardan biridir. Behbudiyning pedagogik konsepsiyasi an'anaviy "usuli qadim"dan voz kechib, tovush asosidagi "usuli savtiya" metodikasini joriy etishga qaratilgan edi [2]. Ushbu metodika o'quvchini mexanik yodlashdan xalos etib, tovush va bo'g'inlar orqali ongli o'qishga o'rgatdi. Natijada savod o'rgatish jarayoni an'anaviy maktablarga nisbatan sezilarli darajada tezlashgani tarixiy manbalarda qayd etiladi [3]. Bu jarayonda Behbudiy "Muallimi soniy" darsligini takomillashtirish va boshqa jadid pedagoglari bilan hamkorlikda metodik qo'llanmalar yaratishga alohida e'tibor qaratdi.

Behbudiy pedagogik qarashlarida ta'limning ommaviyligi muhim o'rin tutadi. U boshlang'ich ta'lim barcha ijtimoiy qatlam vakillari uchun ochiq bo'lishi lozimligini ta'kidlab, xayriya jamiyatlari orqali kambag'al va yetim bolalarni qo'llab-quvvatlash g'oyasini ilgari surdi [4]. Ushbu yondashuv boshlang'ich ta'limda demokratik tamoyillarning shakllanishiga zamin yaratdi. Muallif boshlang'ich ta'limda bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishni muhim deb bildi. Uning "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (1906) darsligi boshlang'ich sinflarda dunyoviy fanlarni tizimli o'qitishning dastlabki namunalaridan biri bo'ldi [5]. Darslikda geografik bilimlar diniy dunyoqarash bilan uyg'un holda bayon etilib, o'quvchilarda mantiqiy va kognitiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, "Kitobat ul-atfol" asari orqali yozuv madaniyati va husnixatni o'rgatish metodikasi ishlab chiqildi. Behbudiyning boshlang'ich ta'lim rivojidadagi muhim hissalaridan biri uning ko'p tilli ta'lim konsepsiyasidir. U ona tili bilan bir qatorda arab, fors va rus tillarini o'rganishni davr talabi sifatida baholadi [6]. Ushbu yondashuvni zamonaviy pedagogik adabiyotlarda qo'llaniladigan "multilingual competence" tushunchasi bilan qiyoslash Behbudiy qarashlarining o'z davridan ilgari ketganini ko'rsatadi. U o'qituvchi shaxsiga yuqori talablar qo'yib, muallimning ijtimoiy maqomi va moddiy ta'minoti ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqligini asoslab berdi.



Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosi bugungi zamonaviy boshlang'ich ta'lim islohotlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Uning fanlararo integratsiya va ko'p tilli ta'limga asoslangan g'oyalari zamonaviy Milliy o'quv dasturi bilan uzviy uyg'unlikda namoyon bo'lmoqda. Shu bois, Behbudiy pedagogik qarashlarini zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimiga konseptual model sifatida integratsiya qilish ilmiy-amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Behbudiy, M. (1999). Tanlangan asarlar. Toshkent: "Ma'naviyat". (176-180, 205-210-betlar).
2. Qosimov, B. (2002). Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent: "Ma'naviyat". (112-118-betlar).
3. Ziyoev, H. (2000). Turkistonda jadidchilik harakati va uning maqsadlari. Toshkent: "Universitet". (54-58-betlar).
4. Ayniy, S. (1953). Esdaliklar. Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. (342-348-betlar).
5. Karimov, N. (2011). Jadidchilik: islohot va yangilanish yo'lida. Toshkent: "O'zbekiston". (89-94-betlar).
6. Alimova, D. (2007). Jadidchilik fenomeni va uning tarixiy ildizlari. Toshkent: "Sharq". (145-150-betlar).